

## AUTIK SPEKTRINING BUZILISHI (ASB).



Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi

Alfraganus University Pedagogika fakulteti,  
Defektalogiya yo'nalishi 3-kurs talabasi.

Utbasarova Umida Mexmanovna

Alfraganus University Pedagogika va Psixologiya  
kafedrasi o'qituvchisi.

**Annotatsiya:** Autik spektori buzilgan bolalarni tibbiy tasnif autizmni asab tizimining kasalliklari deb tasniflaydi, ammo autizm kasallik emas, balki rivojlanishdagi alohida holat degan fikr mavjud. Autik spektor buzilish o'g'il bolalarda qizlarga nisbstan 4 baravar ko'proq aniqlanadi.

**Kalit so'zlari:** Autik spektor, ruhiy holat, hulq-atvor buzilishi, ijtimoiy munosabatlar yo'qligi, xatti-harakatlar nomuttanosibligi, nutq rivojlanish buzilishi, takroriy harakatlar kuzatilishi, atrof-muhitga befarqligi, kognitiv bilish ko'nikmalar yo'qligi.

**Аннотация:** Медицинская классификация детей с расстройствами аутистического спектра относит аутизм к расстройству нервной системы, однако существует мнение, что аутизм – это не болезнь, а особое состояние развития. Расстройства аутистического спектра у мальчиков выявляют в 4 раза чаще, чем у девочек.

**Ключевые слова:** аутистический спектр, психическое состояние, расстройство поведения, отсутствие социальных связей, поведенческий дисбаланс, нарушение речевого развития, наблюдательность за повторяющимися действиями, безразличие к окружающему, отсутствие когнитивных навыков.

**Abstract:** The medical classification of children with autism spectrum disorders classifies autism as a disorder of the nervous system, but there is an opinion that autism is not a disease, but a special developmental condition. Autism spectrum disorders are diagnosed 4 times more often in boys than in girls.

**Key words:** autism spectrum, mental state, conduct disorder, lack of social connections, behavioral imbalance, speech disorder, observation of repetitive actions, indifference to the environment, lack of cognitive skills.

### Kirish:

Autizm-bu miya rivojlanishining buzilishi natijasida yuzaga keladigan hulq-atvor va ijtimoiy o'zaro ta'sir muloqotning aniq va har tomonlama yetishmasligi, shuningdek cheklangan ijtimoiy munosabatlar va takroriy harakatlar bilan tavsiflangan kasallik. Ushbu belgilarning barchasi uch yoshdan oldin o'zini namoyon qila boshlaydi. Yumshoq belgilar va alomatlar qayd etilgan shunga o'xshash holatlar autizm spektrining buzilishi deb ataladi. Uzoq vaqt davomida autizmga xos bo'lgan alomatlar genetik, kognitiv va neyron darajalarida ishlaydigan umumiylab sababdan kelib chiqadi deb ishonishgan. Biroq, hozirgi vaqtida autizm, aksincha, murakkab kasallik bo'lib, uning asosiy jihatlari ko'pincha bir vaqtning o'zida harakatlanuvchi individual sabablar tufayli yuzaga keladi, degan taxmin tobora kuchayib bormoqda. Ko'p jihatdan autizmning rivojlanishi genlar bilan bog'liq, ammo autizm genetikasi murakkab va noaniq bo'lib, u autizm spektrining buzilishining paydo bo'lishiga – ko'plab genlarning o'zaro ta'siriga yoki kuchli ta'sirga ega bo'lgan noyob mutatsiyalarga ta'sir qiladi. Autizm spektrining buzilishi haqida ota-onalarning taxminan yarmi bola 18 oyga yetganida bolaning g'ayrioddiy xatti-harakatlarini sezadilar va 24 oyga kelib ota-onalarning 80 foizi boladagi o'zgarishlarga e'tibor berishadi. Davolashning kechikishi uzoq muddatli natijaga ta'sir qilishi mumkinligi sababli, agar quyidagi belgilar mavjud bo'lsa, bolani darhol mutaxassisiga ko'rsatish kerak:

Bolalarda autizmning sabablari hali ham noma'lum, ammo kasallikning rivojlanishiga turtki bo'lishi mumkin bo'lgan gipotezalar ro'yxati ishlab chiqilgan va klinik jihatdan tasdiqlangan:

- genetik moyillik;
- homiladorlik paytida homila mutatsiyalari;
- ba'zi vaktsinalarning oqibatlari (gipoteza inkor etib bo'lmaydigan tasdiqni topmagan);
- rivojlanish paytida homilaning va hayotning birinchi oylarida bolaning miyasi shikastlanishi ;
- axborot blokadasi tufayli idrokning buzilishi;
- miya yarim sharlarining o'zaro ta'sirining buzilishi;
- tanadagi serotoninning noto'g'ri almashinushi;
- xomilaning rivojlanish bosqichida xromosomada izdan chiqish holatlari;
- ona qornida rivojlanish bosqichida yuzaga keladigan tug'ma nuqsonlar.

Hayotning 12 oyiga kelib, hali ham bola gugulamaydi;

12 oyga kelib, u imo-ishora qilmaydi (qo'lini narsalarga ishora qilmaydi, xayrashish uchun qo'l silkitmaydi va hokazo);

16 oyga kelib, so'zlarni talaffuz qilmaydi;

24 oyga kelib, u ikki so'zli iboralarni aytmaydi (exolaliya bundan mustasno);

biron bir yoshga kelib til yoki ijtimoiy ko'nikmalarning birdan yo'qolsa.

Tashxis qilishda asosiy omillar yoki mexanizmlarini emas, balki bolaning xattiharakatlarni tahlil qilishga asoslangan. Autizmda tavsiya etilgan ro'yxatdagi kamida

oltita alomat bo'lishi kerak, ulardan kamida ikkitasi ijtimoiy o'zaro ta'sirlarning sifatli buzilishini nazarda tutishi kerak, bittasi cheklangan va takrorlanadigan xattiharakatlarni tasvirlashi kerak. Alomatlar ro'yxatida ijtimoiy yoki hissiy o'zaro munosabatlarning yo'qligi, nutqdan foydalanishning stereotipik yoki takrorlanadigan tabiatini yoki nutqning o'ziga xosligi va ma'lum tafsilotlar yoki narsalarga doimiy qiziqish mavjudligi bilan belgilanadi.

### **Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan nashr etilgan kasalliklarning xalqaro tasnifiga ko'ra**

F84. 0 bolalar autizmi (Bolalar autizmi)

F84. 1 atipik autizm (Atypical Autism)

F84. 2 Rett sindromi (Rett sindromi)

F84. 3 bolalik davridagi parchalanish buzilishi (Childhood Disintegrative Disorder)

F84. 4 aqliy zaiflik va stereotipik harakatlar bilan birlashtirilgan giperaktiv buzilish (aqliy qaytish va stereotyped harakatlar bilan bog'liq bo'lgan haddan tashqari buzilish)

F84. 5 Asperger sindromi (Asperger sindromi)

F84. 8 rivojlanishning boshqa asosiy buzilishlari (boshqa pervasive developmental disorders)

F84. 9 Birlamchi rivojlanishning o'ziga xos bo'limgan buzilishlari (Pervasive developmental disorders)

Bizning yurtimizda ayni paytda autizmni davolash bo'yicha real harakatlar Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi hozirgi kunda austik bolalarga bepul xizmat ko'rsatilayotgan yagona va asosiy davlat muassasasi hisoblanadi. Bu kasallik sindromi o'g'il bolalarda qiz bolalarga nisbatan ko'p uchraydi. Simptomlarning har

xilligi va kasallik o‘zgaruvchanligi ushbu kasallikni qiyinligidan dalolat beradi: sezilarsiz autistik xususiyatlardan to doimiy parvarish talab etilishigacha. Autizm haqiqatdan ham tashqi ogohlantirishlarga reaktsiyaning yo‘qligi, o‘ziga chekinish, atrof muhit bilan aloqada juda passivlik va juda zaiflik deb hisoblanadi. Autizmning asosiy belgilari qarashlari, yuz ifodasi va imo ishoralari yordamida boshqalar bilan aloqa o‘rnatishning tug‘ma qobiliyatsizligida namoyon bo‘ladi. Autizmli bolalar turli noqulay vaziyatlarga va taasurotlarning bezovta qiluvchi ta’siriga o‘ziga xos tarzda munosabatda bo‘lishadi. Bunday bolalarda nutq rivojlanishining kechikishi kuzatiladi. Autizm eng aniq 3-5 yoshda kuzatiladi va qo‘rquv, tajovuskorlik, negativizm bilan kechadi. Keyinchalik intelektual va shaxsiy rivojlanishdagi buzilishlar kuzatiladi. Autizmga ega bolaning ehtiyojlarining tanqisligi ko‘rvuv aloqasini o‘rnatishga bo‘lgan intilishlarining yo‘qligi, muloqotga kirishishdagi asossiz qo‘rquvlar uning ijtimoiy yakkaligining yorqin ko‘rinishidir.

### Xulosa:

Xulosa qilib; Autizmga ega bolaning qarashlari bo‘sqliqqa qaratilgan bo‘lib suhbatdoshiga qaratmaydi. Ko‘pincha ushbu qarash autizmli bolani ichki tashvishlanishlarini ifodalaydi. Go‘daklik vaqtida xattoki onasining yuzi ham bolada qo‘rquv uyg‘otishi mumkin. Autizmga ega bo‘lgan bolaning inson yuziga bo‘lgan reaksiyasi shunday g‘ayri tabiiy-ki: bola insonning yuziga qaramaydi, ammo uning pereferik ko‘ruvi boshqa odam tomonidan qilingan barcha, xatto sezilar-sezilmay mayda harakatlami sezishi mumkin. Go‘daklik davrida onasining yuzi “jonlanish kompleksi” bolada qo‘rquvni yuzaga keltirishi mumkin. Ulg‘aya borgan sari autizmga ega bo‘lgan bolaning ushbu hissiy omilga bolgan munosabati o‘zgarmaydi. Odamning yuzi, yuz ifodasi juda kuchli tasirlagichligi saqlanib qoladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Raximova Maxliyo Ilxomjon qizi BOLALARDA AUTIZM BELGILARI VA TASNIFI Namangan Davlat Universiteti Defektalogiya yo‘nalishi 3-bosqich talabasi.

2.AUTIK SPEKTOR BUZILISHI BO'LGAN BOLALAR BILANKORREKSION  
ISH LOGOPED va DEFEKTOLOGLARUCHUN METODIK QO'LLANMA

3."An analytical framework for whole-genome sequence association studies and its implications for autism spectrum disorder". Nature Genetics 50 (5): 727–736. April 2018. doi:10.1038/s41588-018-0107-y. PMID 29700473. PMC 5961723.